



Til kompetentsiyalarini rivojlantirishda adaptiv platformalarning roli

Baxromova Iroda Iftixorjon qizi –
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: irodasolizonova@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8471-1317>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida til kompetentsiyalarini rivojlantirishda adaptiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni turli amaliy qo'llanilish sohalari, jumladan, til o'rgatish platformalari va maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun imkoniyatlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: adaptiv ta'lim tizimlari, kompetentsiya, shaxsiylashtirilgan ta'lim, texnologik infratuzilma, ma'lumotlarni tahlil qilish, talaffuz, so'z boyligi, pedagogik samaradorlik, o'quv jarayoni.

Роль адаптивных платформ в развитии языковых компетенций

Аннотация. В данной статье анализируется значение и преимущества использования адаптивных образовательных технологий в развитии языковых компетенций в современном образовательном процессе. Также рассматриваются различные практические области применения данных технологий, в том числе возможности для платформ изучения языков и для учащихся с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: адаптивные образовательные системы, компетенция, персонализированное обучение, технологическая инфраструктура, анализ данных, произношение, словарный запас, педагогическая эффективность, учебный процесс.

The role of adaptive platforms in the development of language competencies

Annotation. This article analyzes the significance and advantages of using adaptive learning technologies in the development of language competencies in the modern educational process. It also discusses various practical applications of these technologies, including language learning platforms and opportunities for students with special needs.

Keywords: adaptive learning systems, competence, personalized learning, technological infrastructure, data analysis, pronunciation, vocabulary, pedagogical effectiveness, educational process.

KIRISH

Bugun axborot texnologiyalari va raqamli ta'limning rivojlanish davri bo'lib, ta'lim jarayonida interaktiv platformalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Biz bilamizki, til o'zaro muomala, fikr almashish, tafakkur qirolidir. Dunyo xalqlari uchun o'z ona tili ularning bebaho qadriyati, millatning g'ururidir. Til millatning ongi va xotirasi, ruhiyati, ma'naviy va madaniy qiyofasi, milliy qadriyatlari, o'tmishi hamdir. Tilning millat, davlat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni juda muhim, o'ta zaruriy va dolzarb hisoblanadi. Millat, davlat, jamiyat taraqqiy etib borarkan uning tilga bo'lgan extiyoji, e'tibori ham kuchaya boradi. Ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot tildagi taraqqiyotni belgilab beradi. Ta'lim jarayonida til o'qitishga kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi XX asrda juda katta muammo bo'lib qoldi, chunki XXI asrga kelib axborot asrida kompyuter texnologiyasidan quyidagi maqsadlarda til o'qitishda keng foydalanish yo'lga qo'yildi: a) ona tili sifatida o'zbek tilini, chet tili sifatida o'zbek tilini va chet tillarini o'qitish jarayonida kompyuterning dasturlaridan foydalanish. Bu muammoni hal etish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda; b) kompyuter ma'lumotlaridan tilning grammatikasi, fonetikasi va leksikasini o'qitishda foydalanish; v) o'zbek tili va chet tillari bo'yicha olinadigan bilimlarini baholash maqsadida kompyuter dasturidan foydalanish kabilar. Hozirgi rivojlanib borayotgan internet zamonida ta'lim jarayonida adaptiv ta'lim tizimlaridan o'z o'rnida foydalanish til kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim o'rinni egalladi.

Shu bilan birga, nutq kompetentsiyalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ko'plab o'quvchilar o'z ona tilida yoki chet tillarida og'zaki va yozma nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bunga

quyidagi omillarni sanab o'tish mumkin: til o'rgatishda klassik usullar yetarlicha interaktiv emasligi, o'quvchilarning mustaqil amaliyot imkoniyatlari cheklanganligi va o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hindistonlik olimlardan Maryam Bahadorfar va Reza Omidvarlarning "Texnologiyaning gapirish ko'nikmasini o'qitishdagi o'rni" nomli tadqiqotida texnologiya zamonaviy dunyo bilan integratsiyalashuv uchun samarali vosita hisoblanishi, u nafaqat muloqot, savdo va tranzaksiya jarayonlarida, balki ta'lim tizimida ham keng qo'llanilishi yoritilgan. Shuningdek, texnologik vositalar talabalar til kompetentsiyalarini, jumladan, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usullardan biri sifatida qaralishida Internet, podkastlar, videokonferensiyalar, videoroliklar va nutqni aniqlash dasturlari gapirish ko'nikmalarini o'rgatishda eng samarali texnologiyalar sirasiga kirishi qayd qilingan [1].

Rossiyaliklar olimlardan K.O.Vladimirovna va G.E.Aleksandrovnalarning "Til bo'yicha mutaxassis bo'lmagan talabalarining chet tili kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish" nomli ilmiy maqolasida talabalarining chet tili kommunikativ kompetentsiyasiga ega bo'lishi kelajakdagi mutaxassisni shakllantirish uchun zarur shartlardan biri bo'lib, bunda kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyalar qatorida kommunikativ kompetensiya ham muhim rol o'ynaydi [5]. Bizning fikrimizcha, maktab ta'limida ham shunday platformalarni joriy etilsa, ta'lim samaradorligi yanada oshgan bo'lar edi.

Mamalakatimiz olimlaridan S.Saidjalalovanning "Notilshunoslik yo'nalishidagi universitet talabalari nutq kompetentsiyasini rivojlantirish muammolari" nomli maqolasida o'qituvchilar orasida ritorik kompetensiyani shakllantirish masalasi hamda ritorika fanini barcha yo'nalishlar bo'yicha universitetlarning majburiy o'quv dasturiga kiritish zarurati ko'rib chiqilgan [3].

M.I.Uteuliyevaning "Fanlararo kommunikatsiyaga asoslangan nutq kompetentsiyasini rivojlantirish" nomli maqolasida fanlararo kommunikatsiya orqali nutq kompetentsiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Nutq kompetentsiyasi samarali muloqot va turli kontekstlarda tushunishni ta'minlovchi muhim ko'nikma hisoblanadi. Shuningdek, maqolada nutq kompetentsiyasini rivojlantirishda fanlararo kommunikatsiyaning afzalliklari va muammolari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari samarali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va shaxsiy nutq kompetentsiyasini oshirish uchun fanlararo hamkorlikni rag'batlantirish muhimligi ta'kidlanadi [4]. Til orqali shaxs tafakkuri rivojlanar ekan, biz til kompetensiyalarini boshlang'ich sinflardayoq rivojlantirishga erishsak, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini o'sтира olamiz.

A.R.Galiakberova, A.Sh.Nigmatullina va N.M.Akramovalarning "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib ingliz tili darslarida talabalarining yozma kompetentsiyasini rivojlantirish" nomli maqolasida ingliz tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar yozma kompetentsiyasini rivojlantirish jarayoni tahlil qilinadi. Maqola mualliflari kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish uchun sifat jihatidan yangi ta'lim muhiti yaratish imkonini berganini ta'kidlaydilar. Kompyuter texnologiyalari barcha bilim sohasi va ilmiy tadqiqot bosqichlarida asosiy omillardan biri bo'lib, bilim manbai va vositasi sifatida xizmat qilishi yoritilgan [2].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi til o'rganish jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu jumladan, Duolingo dasturi til o'rganuvchilarga zamonaviy yondashuvlar asosida o'z kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng ommabop platformalardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur til o'rganishning adaptiv tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, foydalanuvchilarga turli topshiriqlar, interaktiv mashqlar va gamifikatsiya elementlari orqali nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Duolingo dasturi sun'iy intellekt yordamida

foydalanuvchilarning bilim darajasiga mos ravishda moslashtirilgan mashqlarni taqdim etib, gamifikatsiya elementi, lugʻat boyligini oshirish, talaffuzni rivojlantirish, Interaktiv mashqlar, shaxsiylashtirilgan oʻrganish, real hayotga yaqin nutq holatlari kabi asosiy jihatlar orqali nutq kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Duolingo dasturi talabalar uchun samarali til oʻrganish vositasi boʻlib, nutq kompetentsiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Uning gamifikatsiya, talaffuz tanish texnologiyalari, interaktiv mashqlar va shaxsiylashtirilgan oʻrganish tizimi yordamida foydalanuvchilar oʻz nutq koʻnikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Dastur real nutqiy vaziyatlarga moslashtirilganligi sababli, u talabalar uchun muloqotga kirishishda muhim tayyorgarlik maydonini yaratadi. Shu bois, zamonaviy til oʻrgatish jarayonida Duolingo singari texnologik yechimlarning qoʻllanilishi katta ahamiyat kasb etadi. Duolingo dasturi kompyuter va mobil qurilmalar uchun maxsus ilovalardan foydalanib mustaqil oʻrnatish va undan foydalanish mumkin [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni baholash, adaptiv taʼlim platformalarining samaradorligini aniqlash va til kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi oʻrnini tahlil qilishga qaratilgan. Metodologiya quyidagi yondashuv va usullarga asoslanadi: tadqiqiy yondashuv (nazariya va amaliyot): tadqiqot metodlari (adabiyotlarni tahlil qilish, adaptiv oʻquv platformalari, pedagogik kuzatuv, soʻrovnoma va suhbat); maʼlumotlarni yigʻish va tahlil qilish.

Biz ham yuqoridagi olimlarning fikrlarini qoʻllab-quvvatlagan holda maktab oʻquvchilari uchun raqamli taʼlim tizimini yoʻlga qoʻyishni taklif etmoqchimiz. Bu orqali oʻquvchilarning nafaqat oʻz ona tili balki xorijiy til kompetentsiyalarini ham qiziqish bilan oʻyin tarzda oʻrganishini tarafdorimiz. Hozirgi kunda har bir inson telefonga yoki kompyuter oʻyinlariga koʻp vaqtini sarflayapti, ayniqsa maktab oʻquvchilari. Darsdan tashqari vaqtlarini foydasiz boʻlgan sogʻliq uchun zararli, xotirani sustlashishi va ruhiyatiga salbiy taʼsir oʻtkazayotgan foydasiz oʻyin oʻynashga vaqt sarflash oʻrniga shundan foydali dastur orqali til oʻrganishi mumkin. Biz oʻzimizning tadqiqot ishimizda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining til koʻnikmalarini rivojlantirishda quyidagi metodikani taklif qilamiz.

“Audiomatn” metodikasi – bu metodika orqali oʻquvchilarga dars jarayonida audiomatn eshiritiladi, bu jarayonda asosan yosh xususiyatiga xos boʻlgan hikoyalar beriladi. Masalan:

“Tozalik”

Kishining qandayligi ish joyidan bilinadi. Ilgʻor ishchilar dastgohlarini doimo toza tutadilar. Yerga turli chiqindilar tashlamaydilar. Dastgoh yaqinida chiqindi uchun maxsus idish turadi. Hatto latta va supurgi ham boʻladi. Ilgʻakda sochiq osigʻliq turadi. Dastgoh tepasidagi qoʻshaloq chiroqda ham chang boʻlmaydi. Asboblarning hammasi tartibli qoʻyiladi. Ular tokchada saqlanadi. Palapartishlik – yomon odat. Chunki ish unumining pasayishiga sabab boʻladi.

(57 soʻz)

Ushbu hikoyaning audiomatni oʻquvchilarga eshittirilgach, hikoyaning kichik detallarigacha ogʻzaki hikoya qilib berishlari soʻraladi. Bu orqali oʻquvchilar hikoyani qayta ogʻzaki shaklda bayon etadilar, ularning ogʻzaki nutqi rivojlanib, bolalarda erkin soʻzlashuv hamda oʻz fikrini dadil bayon eta olish qobiliyati rivojlanadi. Ushbu metodikamizning majjud metodiklardan farqi shundaki, bunda oʻquvchilar dars va darsdan tashqari holatlarda oʻzi mustaqil ravishda ham til koʻnikmalarini rivojlantira oladilar. Hikoyalarni mediavositalar orqali oʻrganishi bolalarda taʼlimga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Hikoyalarni noodatiy ravishda oʻrgatishimiz oʻquvchilarni xotirasini ham mustahkamlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi ta'limda o'quvchilardan talab qilinayotgan bilim o'quvchining keng fikrlashi hamda o'z fikrini aniq, lo'nda va to'g'ri bayon eta olishidir. O'quvchilarda til ko'nikmalarini yaxshi rivojlantira olsak, jahon ta'lim standartlariga mos bolalarni voyaga yetkaza olamiz. Biz yaratgan metodikani ta'lim jarayonida qo'llashimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarini teran fikrlovchi va kommunikatsiya jarayonida faol hamda ijodkor shaxs sifatida shakllanishida turtki bo'ladi.


Boshlang'ich sinflar ichida ushbu metodikamiz o'tkazilganda quyidagi natijalar qayd etildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

“Audiomatn” metodikasini o'tkazish asosida olingan natijalar to'g'risida ma'lumot

№	Sinf	O'zlashtirish ko'rsatkichi	“Audiomatn” metodikasi qo'llangandan keyingi ko'rsatkich
1	2-sinf	52 %	61 %
2	3-sinf	60%	71 %
3	4-sinf	69 %	81 %

Ushbu jadvalni diagrammada quyidagicha ifodaladik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Statistik ma'lumotlar diagrammasi.

Interaktiv platformalardan kompleks foydalanish – til o'rgatish jarayonida Duolingo kabi platformalarning kombinatsiyalangan holda qo'llanilishi o'quvchilar uchun yanada samarali natijalar berishi mumkin. Interaktiv platformalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha o'qitish zarur. Ushbu platformalar yordamida baholash tizimini rivojlantirish – an'anaviy baholash usullaridan tashqari, interfaol testlar, so'rovnomalar va viktorinalar orqali baholash ham mumkin. Mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish – o'quvchilar va ularning ota-onalariga istalgan vaqtda va joyda til o'rganish imkonini berish uchun interaktiv platformalarning mobil versiyalaridan

keng foydalanish kerak va bu jarayonda o'quvchilarning ota-onalari uchun ham til o'rganish doirasida uchrashuvlar, viktorinalar o'tkazish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish – interaktiv platformalarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini chuqurroq o'rganish va ularni yangilash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda interaktiv platformalarning o'quvchilarning nutq kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, Duolingo gamifikatsiya elementlari orqali til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Interaktiv platformalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilar bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Biz tavsiya etgan metodikamiz orqali o'quvchilar raqamli ta'lim texnologiyalari orqali til ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantira oladilar. Dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarning elektron vositalarni qo'llay olishi hamda bu orqali o'z ustida ishlay olishini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarda ona tilini puxta egallashga yanada qiziqish uyg'otadi. Shu bois, ularning ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bahadorfar M., Omidvar R. Technology in teaching speaking skill.
https://www.researchgate.net/publication/315790125_Technology_in_teaching_speaking_skill
2. Galiakberova A.R., Nigmatullina A.Sh., Akramova N.M. Using information and communication technologies to develop writing competence of students at the lessons of the english language.
<https://cyberleninka.ru/article/n/using-information-and-communication-technologies-to-develop-writing-competenceof-students-at-the-lessons-of-the-english-language>
3. Saidjalalova S. Problems of development of speech competence of students of non-philological universities.
<https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/05/Full-Paper-Problems-of-development-of-speechcompetence-of-students-of-non-philological-universities.pdf>
4. Uteuliyeva M.I. Development of Speech Competence Based on Interdisciplinary Communication.
<https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/111>
5. Vladimirovna K.O., Aleksandrovna G.E. Development of foreign-language communication competence of non-linguistic specialties students.
<https://cyberleninka.ru/article/n/development-of-foreign-language-communication-competence-of-non-linguistic-specialties-students>
6. Учите языки бесплатно, весело и эффективно! <https://www.duolingo.com/>. Android uchun (Google Play Store).
<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.duolingo>. iOS (iPhone/iPad) uchun (App Store): <https://apps.apple.com/app/duolingo/id570060128>